



Content, structural composition, and developmental criteria for enhancing the methodological competencies of future primary education teachers based on pedagogical collaboration

Nodirabegim OLIMOVA¹

Fergana State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received May 2025

Received in revised form

15 May 2025

Accepted 25 June 2025

Available online

15 July 2025

Keywords:

methodological competence,
pedagogical collaboration,
primary education,
professional training,
innovative approach.

ABSTRACT

This article explores the content, structural components, and development criteria of pre-service primary school teachers' methodological competencies based on pedagogical collaboration. It analyzes the key elements of methodological competence, including cognitive, practical, reflective, innovative, and cooperative components. The study substantiates the role of pedagogical collaboration in methodological training, referring to the educational policy documents of the Republic of Uzbekistan. The article also provides practical recommendations for developing professional competencies in future teachers.

2181-3663/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss4-pp29-34>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining metodik kompetensiyalarini pedagogik hamkorlik asosida rivojlantirishning mazmuni, tarkibiy tuzilmasi va rivojlanish mezonlari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

metodik kompetensiya,
pedagogik hamkorlik,
boshlang'ich ta'lim,
kasbiy tayyorgarlik,
innovatsion yondashuv.

Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining metodik kompetensiyalarini pedagogik hamkorlik asosida rivojlantirishning mazmuni, tarkibiy tuzilmasi va rivojlanish mezonlari yoritilgan. Unda metodik kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismlari – bilim, amaliy, reflektiv, innovatsion va hamkorlik komponentlari tahlil qilingan. Pedagogik hamkorlikning metodik tayyorgarlik

¹ Lecturer, Fergana State University. E-mail: nodirabegim3363@icloud.com

jarayonidagi o'rni O'zbekiston Respublikasi ta'lim siyosati hujjatlari asosida asoslab berilgan. Maqola bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish bo'yicha amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Содержание, структурная система и критерии развития методических компетенций будущих учителей начальных классов на основе педагогического сотрудничества

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

методическая компетенция, педагогическое сотрудничество, начальное образование, профессиональная подготовка, инновационный подход.

В статье раскрыты содержание, структурная композиция и критерии развития методических компетенций будущих учителей начальных классов на основе педагогического сотрудничества. Рассмотрены основные компоненты методической компетенции: когнитивный, практический, рефлексивный, инновационный и кооперативный. Обосновано значение педагогического сотрудничества в процессе методической подготовки на основе нормативных документов образовательной политики Республики Узбекистан. В статье приведены практические рекомендации по формированию профессиональных компетенций у будущих педагогов.

KIRISH

Ta'lim sifatini oshirish, kompetensiyali pedagog kadrlarni tayyorlash hamda zamonaviy ta'lim talablari asosida boshlang'ich ta'lim tizimini takomillashtirish bugungi kundagi dolzarb ilmiy-pedagogik masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining metodik kompetensiyasi – bu nafaqat pedagogik bilimlar va ko'nikmalar majmui, balki uning kasbiy refleksiya, innovatsion yondashuv, didaktik dizayn, muammoli vaziyatlarda samarali qaror qabul qilish va ta'lim jarayonini optimallashtirish salohiyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan kompleks kasbiy sifatdir.

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining metodik kompetensiyasini pedagogik hamkorlik asosida rivojlantirish esa, o'qituvchi tayyorlash jarayonida amaliyot bilan integratsiyalashgan, ko'p darajali o'zaro ta'sirga asoslangan yondashuvni nazarda tutadi. Pedagogik hamkorlik – bu universitet, maktab, mentor-pedagoglar va talabalar o'rtasida o'zaro axborot almashinuvi, kasbiy muloqot va refleksiv tahlilga asoslangan interaktiv hamkorlik mexanizmini shakllantiradi.

Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining metodik kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishning mazmuni, tarkibiy tuzilmasi hamda rivojlanish mezonlari chuqur tahlil qilinadi. Xususan, kompetensiyaviy yondashuv, andragogik prinsiplar, konstruktivistik ta'lim modeli, hamkorlikka asoslangan o'qitish (collaborative learning), shuningdek, mentorlik tizimi va faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvlar asosida samarali modellar ishlab chiqiladi.

Mavzuni yoritishda xorijiy mamlakatlar tajribasi va O'zbekiston ta'lim tizimidagi mavjud imkoniyatlar tahlil qilinadi, shuningdek, metodik kompetensiyaning diagnostika mezonlari, baholash indikatorlari va rivojlanish bosqichlari ilmiy-nazariy asosda

yoritiladi. Bu esa ta'lim sifatini oshirish, kasbiy rivojlanishni tizimlashtirish va bo'lajak pedagoglarning amaliy tayyorgarligini chuqurlashtirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

ASOSIY QISM

Metodik kompetensiyani shakllantirishda pedagogik hamkorlikning ahamiyati davlat siyosati darajasida e'tirof etilgan bo'lib, bu masala O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-apreldagi PF-6195-sonli "Ta'lim-tarbiya tizimini tubdan takomillashtirishga doir Milliy dastur to'g'risida"gi farmonida aniq belgilab berilgan. Farmonda pedagog kadrlarni tayyorlashda innovatsion va integrativ yondashuvlarni joriy etish, kasbiy kompetensiyalarni chuqurlashtirish va oliy ta'lim muassasalari bilan amaliyot bazalari o'rtasida uzviy aloqani yo'lga qo'yish zarurligi ta'kidlanadi. Ushbu siyosiy-huquqiy asos metodik kompetensiyani pedagogik hamkorlik orqali shakllantirishni davlat strategiyasi bilan uyg'unlashtirish zarurligini ko'rsatadi. Aynan mazkur yondashuv asosida metodik tayyorgarlikning mazmuni – ta'lim mazmunini tushunish, o'quvchilarning rivojlanishiga mos o'qitish usullarini tanlash, darsni loyihalash, o'quv yutuqlarini tahlil qilish, baholash va refleksiya orqali kasbiy o'sishni ta'minlash kabi elementlar bilan boyitiladi.

Bo'lajak o'qituvchilarning metodik kompetensiyasi quyidagi tarkibiy komponentlar asosida shakllanadi:

- bilim komponenti – nazariy bilimlar majmui;
- amaliy komponent – o'quv jarayonini tashkil etish ko'nikmalari;
- refleksiv komponent – o'z faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirish qobiliyati;
- innovatsion komponent – yangicha texnologiyalarni joriy etish layoqati;
- hamkorlik komponenti – jamoaviy muloqot va birgalikdagi faoliyatni tashkil etish

salohiyati.

Mazkur komponentlar integratsiyalashgan holda qaralganida, ularning o'zaro bog'liqligi va bir-birini to'ldirishi metodik kompetensiyaning mukammal shakllanishiga zamin yaratadi.

Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2020-yilgi "Pedagogik ta'lim sifatini oshirishning nazariy-metodik asoslari" tavsiyanomasida ham metodik tayyorgarlikda bilim, amaliyot va refleksiya jarayonlarini uzviy bog'lash, talabaning har bir bosqichda pedagogik hamkorlikda faol ishtirokini ta'minlash zarurligi alohida ta'kidlangan. Bu esa metodik kompetensiyani shakllantirishda izchil bosqichlilik, faol ishtirok va ko'p tomonlama hamkorlikka asoslangan yondashuvning samaradorligini yana bir bor isbotlaydi.

Hozirgi kunda ta'lim tizimida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining metodik kompetensiyalarini shakllantirish va u orqali ta'lim sifati samaradorligini oshirish muhim va dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham bo'lajak pedagoglarning metodik bilim va ko'nikmalarni chuqur egallashi, ularni amaliyotda samarali qo'llay olishi ta'minlanishi zarur. Bu esa o'z navbatida, metodik kompetensiyaga ega bo'lgan, o'z kasbiga mas'uliyat bilan yondashadigan malakali mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan tizimli yondashuvni talab etadi.

Ilmiy-pedagogik adabiyotlarda va zamonaviy kompetensiya yondashuvi asosida metodik kompetensiya quyidagicha ta'riflanadi.

Metodika (yunoncha *methodike* – "tadqiqot yo'li", "uslub") – pedagogik faoliyatning maqsadga yo'naltirilgan, tizimli, rejalashtirilgan va ilmiy asoslangan tashkil etilishini ta'minlovchi nazariy va amaliy bilimlar majmui bo'lib, o'qitish jarayonining mazmuni,

shakli, usuli va vositalarini tanlash, ularni o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga moslashtirib qo'llashni o'z ichiga oladi. Metodika o'quv-tarbiyaviy faoliyatni rejalashtirish, tashkil etish, tahlil qilish va takomillashtirish jarayonida pedagogga yo'l ko'rsatadigan ilmiy-nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Metodika o'qituvchining **kasbiy bilimlari, pedagogik mahorati, didaktik qarashlari, metodik refleksiya** hamda **innovatsion yondashuvlari** asosida shakllanib, uning kasbiy kompetensiyasining ajralmas tarkibiy qismidir. U o'qituvchining ta'limiy maqsadlarni belgilash, dars tuzish, o'qitish vositalarini tanlash va ularni baholashda qanday yo'nalishda harakat qilishini aniqlab beradi.

Lotin tilidagi "competere" so'zidan olingan "kompetensiya" – "muvofig kelmoq", "loyiq bo'lmoq", "qodir bo'lmoq" degan ma'nolarni anglatadi. Shu jihatdan olib qaralganda, metodik kompetensiya – bu bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy faoliyatga metodik jihatdan tayyorligi, o'z faoliyatini mazmunli, samarali va innovatsion tarzda tashkil eta olish salohiyati sifatida e'tirof etiladi.

Kompetensiya (lotincha *competentia* – muvofiqlik, qobiliyat, qodirlik) – shaxsning kasbiy, ijtimoiy va shaxsiy faoliyat sohalarida muvaffaqiyatli faoliyat yurita olishini ta'minlaydigan integrativ sifatlar majmui bo'lib, u bilim, ko'nikma, malaka, shaxsiy fazilatlar, ijtimoiy tajriba va qadriyatlarining uyg'unlashuvini o'z ichiga oladi. Kompetensiya insonning muayyan muammoni anglash, uni tahlil qilish va mos qarorlar qabul qilishdagi kasbiy tayyorgarlik darajasini ifodalaydi. Bu tushuncha shaxsning o'z faoliyatini ongli ravishda boshqarish, o'zgaruvchan vaziyatlarga moslashish va yangicha yechimlar topish qobiliyatini ham anglatadi.

Metodik kompetensiya quyidagi asosiy tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

- pedagogik texnologiyalarni chuqur bilish,
- metodik refleksiya (ya'ni o'z faoliyatini tahlil qilishga layoqat),
- o'quvchilarni anglay olish salohiyati,
- ta'limiy maqsadlar asosida didaktik qaror qabul qilish qobiliyati.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kompetensiyaning amaliy ahamiyati shundaki, u o'qituvchining kasbiy faoliyatida mustaqil, mas'uliyatli va ijodiy qarorlar qabul qilishini, shuningdek, metodik yondashuvlarni konkret o'quv muhitiga moslashtirishini ta'minlaydi.

Xususan, bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining tafakkur salohiyatini rivojlantirish jarayonida metodik kompetensiyaning bosqichma-bosqich shakllanishi muhim ahamiyatga ega. Metodik kompetensiya esa pedagog shaxsida shakllanishi lozim bo'lgan ko'plab shaxsiy va kasbiy sifatlarning uyg'unlashgan tizimi sifatida talqin etiladi. Mazkur sifatlar esa metodik kompetensiyaning samarali rivojlanishi uchun mustahkam zamin yaratadi. Bunday muhim sifatlar qatoriga o'qituvchining insonparvarlik yo'nalishidagi kasbiy faoliyati, uning didaktik-analitik tafakkur salohiyati, pedagogik qobiliyatlari va pedagogik texnikasi kiradi.

Ushbu jihatlarni quyidagicha umumlashtirish mumkin:

*Birinchi*dan, metodik kompetensiya – bu o'qituvchi shaxsining ichki psixologik holatiga asoslangan o'z-o'zini boshqaruvchi tizim bo'lib, unda insonparvarlik g'oyasi markaziy motivatsion omil sifatida namoyon bo'ladi.

*Ikkinchi*dan, mahorat pedagogik faoliyatda ongli va mazmunli harakatlarning asosini tashkil etadi, bu esa o'z navbatida chuqur bilim bilan chambarchas bog'liqdir. Kasbiy yo'nalganlik va puxta egallangan bilim pedagogik faoliyatning asosiy strukturaviy tayanchi (ya'ni "skeleti") bo'lib xizmat qiladi.

Uchinchidan, pedagogik qobiliyatlar metodik kompetensiyaning shakllanishini faollashtiruvchi ichki harakatlantiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

To'rtinchidan, bilim va qobiliyatga tayanilgan pedagogik texnika barcha ta'sir vositalarini pedagogik maqsadlar bilan uyg'unlashtirib, pedagogik faoliyatning ichki tuzilmasini muvofiqlashtirishga xizmat qiladi.

Metodik kompetensiya o'zaro integratsiyalashgan to'rt tarkibiy komponent asosida shakllanadi: insonparvarlik, mahorat, pedagogik qobiliyatlar va pedagogik texnika. Bu komponentlarning rivojlanishi faqat tashqi omillar bilan emas, balki o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan ichki ehtiyoj va intilishga ham bevosita bog'liq. O'z-o'zini rivojlantirish esa maxsus bilim va amaliy ko'nikmalar asosida amalga oshadi. Pedagogik qobiliyatlar metodik kompetensiyaning shakllanishi va rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ular o'qituvchining nafaqat kasbiy mahoratini, balki o'quvchiga nisbatan individual, mas'uliyatli va innovatsion yondashuvini shakllantirishga xizmat qiladi. Natijada, pedagogik muvaffaqiyatga erishishning asosiy sharti – bu yuqori darajadagi qobiliyatlar, unga erishish vositasi esa – samarali pedagogik texnika hisoblanadi.

Pedagogik hamkorlik – bu ikki yoki undan ortiq ishtirokchi o'rtasida ta'lim jarayonini amalga oshirishda yuzaga keladigan o'zaro anglashuv va birgalikdagi faoliyatga asoslangan pedagogik munosabatlar tizimidir. Ushbu hamkorlik o'qituvchi va talabaning ta'limiy faoliyat davomida bir-birini anglash, o'zaro yaqinlikni his qilish, faoliyat bosqichlarida erishilgan natijalarni birgalikda tahlil etish va baholash orqali o'z ifodasini topadi. Bu jarayon rivojlantiruvchi, ilg'or pedagogik g'oyalarni o'zida mujassam etganligi bilan alohida ilmiy-metodik ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik hamkorlik ta'limi bir qator asosiy yo'nalishlar asosida tashkil etiladi. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi:

- o'qituvchi tomonidan pedagogik majburiyat va avtoritar yondashuvdan voz kechgan holda, tenglik va hamkorlikka asoslangan ta'limiy munosabatlarni yo'lga qo'yish;

- talabaga insonparvarlik g'oyalari asosida shaxsiy (individual) yondashuvni ta'minlash;

- ta'lim jarayonida o'qituvchi va talaba o'rtasida ma'naviy birlikni shakllantirishga erishish.

Mazkur yondashuvning markaziy g'oyasi – bu o'qituvchi va talabaning o'zaro hamkorlikda ta'limiy topshiriqlarni bajarishlari va shu asosda bilim egallash jarayonini birgalikda tashkil etishdan iboratdir. Bunday hamkorlik muhitida nafaqat o'quv materiallari o'zlashtiriladi, balki pedagogik jarayon ishtirokchilarining shaxsiy va kasbiy rivojlanishi ham ta'minlanadi.

Pedagogik hamkorlikning samaradorligi ijtimoiy buyurtmani to'laqonli bajarish va belgilangan maqsadlarga erishish bilan chambarchas bog'liq. Buning uchun o'quv jarayonini puxta loyihalash va unga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni samarali joriy etish zarurdir. Bu jarayonda ta'lim maqsadlariga erishishni kafolatlaydigan o'quv-bilish faoliyati strukturasi aniq belgilanishi lozim. Shuning uchun ham pedagogik texnologiyalar, ayniqsa, hamkorlikka asoslangan yondashuvlar, o'quv jarayonini oldindan rejalashtirish, bosqichma-bosqich tashkil qilish hamda kutilgan natijaga yo'naltirilgan tizimni shakllantirish imkonini beradi.

XULOSA

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining metodik kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish zamonaviy pedagogik jarayonning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, metodik kompetensiya – bu

faqatgina didaktik bilimlar to'plami emas, balki o'qituvchining kasbiy refleksiya qilish qobiliyati, pedagogik texnologiyalarni puxta egallashi, amaliyotda moslashuvchanlik va innovatsion yondashuvlarga tayangan holda ta'limni samarali tashkil etish ko'nikmalaridir.

Mazkur kompetensiyani samarali rivojlantirishda pedagogik hamkorlik alohida o'rin tutadi. Universitet, maktab, mentor-o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi integratsiyalashgan hamkorlik, ko'p tomonlama muloqot, kasbiy refleksiya va faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvlar orqali bo'lajak pedagoglarning metodik salohiyati sifat jihatdan oshadi. Bunda ayniqsa mentorlik tizimi, refleksiv amaliyotlar va hamkorlikka asoslangan o'qitish metodlari yuqori natija beradi.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan tarkibiy tuzilma va rivojlanish mezonlari asosida metodik kompetensiyani baholash, monitoring qilish va bosqichma-bosqich rivojlantirish mumkinligi aniqlanadi. Shuningdek, xorijiy tajribalarning tahlili O'zbekiston ta'lim tizimida samarali adaptatsiya imkoniyatiga ega ekani isbotlandi.

Shu asosda xulosa qilish mumkinki, pedagogik hamkorlik asosida metodik kompetensiyani rivojlantirish – bu ta'lim sifatini oshirish, o'qituvchilarning kasbiy yetukligini ta'minlash hamda zamonaviy talablarga javob beradigan kadrlar tayyorlashda muhim strategik yo'nalishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. –Toshkent: O'zbekiston, 2021. – B.464.
2. Kamolova, A., & Ergasheva, G. S. Q. (2022). Yosh avlodni tarbiyalashda xalq pedagogikasini manbalarining o'rganishning o'rganishning ilmiy-nazariy asoslari. Science and Education, 3(12), 590-592.
3. Pedagogika (pedagogika nazariyasi va tarixi): O'qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani ta'lim sohasi bakalavriat yo'nalishi uchun darslik/ M.X. Toxtaxodjayeva, S. Nishonova, J. Hasanboyev, M.Usmonboyeva, S. Madiyarova, A. Qoldibekova, N. Nishonova, N. Sayidahmedov; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi. – Toshkent: « O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2010. –B. 400.
4. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: Development of Higher Psychological Processes (M. Cole, V. Jolm-Steiner, S. Scribner, & E. Souberman, Eds.). Harvard University Press. –P. -26.
5. Xolboeva M.X. Boshlang'ich ta'limda pedagogik-psixologik bilimlarni shakllantirish metodikasi. – Toshkent: TDPU, 2017. – 132 b.
6. <http://www.lex.uz/>.
7. <http://www.pedagog.uz/>
8. <http://www.ziyonet.uz/>